



ERKIN VOHIDOV IJODIDA NAVOIYGA IZDOSHLIK AN`ANALARI

Toshqulova Noila G`ayrat qizi

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: F.N.Buriyeva

filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD),

O`zbekiston – Finlandiyaa pedagogika instituti, Samarqand

Annotatsiya: Erkin Vohidov she`riyatidagi Navoiy siymosi Navoiyga izdoshlik an`anasi o`ziga xos tarzda davom ettirilganligi tahlilga tortilgan . Erkin Vohidov she`rlarida Navoiyga izdoshlik xususiyatlari aks etishi, obrazlar tahlili, "Junun vodiysida" nomli g`azalga bitgan sharhi. Shuningdek, "Aylagach" radifli g`azalga bitilgan muxammasi Erkin Vohidovning Navoiy ijodidan teran saboqlar olgani dalillangan.

Kalit so`zlar: Navoiy, Erkin Vohidov, aruz, vazn, izdoshlik an`anasi, muxammas, she`r

Milliy adabiyotimizning yorqin ijodkorlaridan biri bo`lgan Erkin Vohidov milliy she`riyatimiz samosining yorqin quyoshi hazrat Alisher Navoiy g`azallariga ko`plab tatabbu-o`xshatmalar, naziralar bog`lagan . Navoiy g`azallariga sharh va go`zal misralar bitgan. Sharq adabiyotida mashhur an`anaviy obrazlar shoir ijodida alohida o`rin egallagan. Shoir Erkin Vohidov 1969-yilda nashr ettirgan "yoshlik devonida" o`rin olgan ijod na`munalari boshqa asarlardan tubdan ajralib turadi. Avvalo, bu farq vazn xususiyatida namoyon bo`ladi , ya`ni boshdan oyoq aruz vazni asosida qurilgan. Mumtoz adabiyotga xos bo`lgan badiiy vosita va she`riy sa`natlarning qo`llanganligi, zamoniy g`azalchilikni rivojlantirganligi bilan alohida xarakterlanadi.

Yurtboshimiz SH.Mirziyoyev Erkin Vohidov me`rosini o`rganishga, o`rgatishga, tatqiq etishga juda katta e`tibor bilan qaramoqdalar. Erkin Vohidov ijodi – bashariyatga, odam va olam haqidagi eng muhim hayotiy saboqlarni badiiy talqinda, ravon usulda uqtirishga qodir she`riyat sanaladi. Shuning uchun ham prezidentimiz suhbatlaridan birida : "Ulug` shoirimizning "Inson qasidasi" benazir asar . Uni bir qancha tillarga tarjima qilib , kuyga solib, qo`shiq qilib aytinglar . Hozir ham inson g`oyasi qanchalar noyob va aziz ekanligini odamlar , yoshlar bilsin" (Mirziyoyev Sh. Namangan viloyat faollari bilan uchrashuvda so`zlagan nutqidan. Kun.uz saytidan olindi) deb alohida ta`kidlaganlar. Yigirmaga yaqin janrda



qalam tebratgan A.Navoiy o`zining beqiyos tafakkuri, o`lmas ijodi bilan jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatgan benazir mutafakkirdir. Turkiy she'riyatda A.Navoiydan so'ng ijod qilgan hech bir so'z sa'natkori yo'qki uning ijodini chetlab, undan bahramand bo'lmagan bo'lsa. O'zbek xalqining atoqli shoirlaridan Erkin Vohidov ijodida ham Alisher Navoiyning ta'siri alohida o'ringa ega.

Erkin Vohidov ijodidagi "Yoshlik devoni" mumtoz adabiyotimiz gulshanida go'zal guldastaga aylandi desak adashmagan bo'lamiz. To'plamda har qaysi mavzudagi g'azallarni topishingiz mumkin.

To'plam "Debocha" bilan boshlanadi :

Istadi sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida ,

Kulmangiz, ne bor senga deb Mir Alisher yonida.

(Vohidov E. Yoshlik devoni . Toshkent . G'afur G'ulom. 1969. Keyingi misollar ham shu kitobdan olindi)

Shoir ilk baytniyoq go'zal lutf bilan, o'ziga xos kamtarona ohang bilan boshlaydi. Muallif g'azal bo'stoniga kirishni o'z oldiga maqsad qildi, tabiiyki, u yerda g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning beqiyos mulki bor. Buni shoir biladi va g'azalxonlardan kulmasligini so'rab, o'z maqsadini keyingi baytda aniq ifoda etadi:

She'riyat dunyosi keng, gulzori ko'p bo'stoni ko'p,

Har ko'ngil arzini ayur neki bor imkonida.

She'riyat olami juda keng bo'lib, uning qanchadan-qancha gulzorlar, chamanlar, bo'stonlari bor. Bu olamga kirgan inson qo'lidan kelgancha, bor imkonicha o'z dilidagilarni izhor etadi. Men ham gulzorga o'z hissamni qo'shayin deya shoir Erkin Vohidov ham yuqoridagi misralar bilan o'z devonini boshlaydi.

Devondagi mavzu obyektining xilma-xilligiga to'xtaladigan bo'lsak, asosiy qismi, sevgi-muhabbat ruhidagi g'azallar tashkil etadi. Ularga shoirning "Yo'q emish orzuda ayb", "Bandi zulf", "Dostonga yoz", "Samar bo'lg'ay", "Uyg'otmagil", "Rashkim", "Shirin", "Na qilsin", "Sevgini tortib bo'lurmi" g'azallarini misol qilish mumkin.

Shoirning keyingi bayti bevosita ishq, hijron yuklari, oshiqning dil rozlari bilan bog'liqdir.

Roziman, tushguncha dilga

Nogahon hijron yuki,

Nogahon, mayli, tanimdan

Ayru bo'lsin jon yuki

Shoirning "Hijron yuki" nomli bu g'azaliga Navoiy g'azalidan epigraf olganligi misraning yanada ta'sirchanligini oshirishiga yordam bergan.



Aylag'in jondin judo
Etguncha jonondin judo.

Muxammas izdoshlikning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi .Ayniqsa, mumtoz she'riyatda izdoshlik masalasini bir shoir g'azallariga bog'lagan muxammaslar misolida ko'rib chiqilsa,bu masala mohiyati yanada oydinlashadi.Mumtoz she'riyatimizning boy xazinasidan ma'lumki , biror shoirning g'azaliga bog'lanayotgan muxammas ikki shoirning mahorat bobida o'zaro musobaqasi,she'r bobida bellashayotgan vaziyatini namoyon qilganidek taassurot uyg'otadi.Asolini olganda , muxammasning ikki ko'rinishi mavjud.

Birinchi ko'rinishda taxmis bandlaridagi barcha misralar muxammas yozayotgan muallif qalamiga mansub bo'ladi va bunday taxmislar tab'i xud muxammas hisoblanadi.

Ikkinchi turida esa muxammas biror boshqa shoirning g'azaliga bog'langan bo'ladi.Bunda g'azalning har bayti oldidan shu mazmun ,shu vazn,shu qofiya,radifi bo'lsa , shu radifga muvofiq keluvchi uch misradan qo'shib boriladi.Muxammasning har ikkala turi ham shoirdan katta mahoratni talab qiladi.Biroq bodhqa shoir g'azaliga bog'langan taxmisda muxammas bog'layotgan shoir g'azal muallifining "chizgan chizig'idan chiqqa olmaydi". Taxmis qilayotgan shoir tanlagan g'azal muallifi darajasiga chiqishga sa'y qiladi .Bu jarayonda g'azal muallifi qo'llagan mazmun va shakl unsurlarini benihoya o'tkir zehn va o'ta nazokat bilan o'zi bitgan misralar bilan bog'lay bilishi talab etiladi.Aks holda, g'azalning emas,balki taxmisning tanqiddan tuban bo'lishiga olib keladi.Va taxmis bog'lovchining ham shoirlik sha'niga jiddiy putur yetadi.(Oyina.uz saytidan)

Erkin Vohidov mahoratining bir qator qirralari ko'zga tashlanadiki,shoir bu muxammas misolida Alisher Navoiyga izdoshligi anchayin chuqur bo'lgani,o'z muxammasini navoiyona mazmun bilan boyita olganini dalillashga erishgan.

Shoirning nodir durdonalar safida "Aylagach" radifli g'azaliga bog'langan muxammasi ham bor.Shuningdek g'azal janri beqiyos o'ringa ega.G'azalning birinchi bandidagi "yuz","zulf","tor" lirik timsollari bilan muxammasning "gulshan","g'uncha","bulbul","oy","shabiston" timsollari mazmuniy birlik hosil qilib tanosub sa'natining yuksak na'munasini yuzaga keltiradi:

Ko'z ochar gulshanda g'uncha bulbul afg'on aylagach,
Misli oykim,ko'rk ochur sayri shabiston aylagach
Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Sham ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.

G'azalning ikkinchi baytidagi :



Yuzni gullardan bezabmu,bizni qurbon aylading
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach
“istioralar muxammas shaklda yanada mukammallik kasb etadi va hayot timsoli
“qon” va “xino” poetik detallari uyg’unligida o’quvchi tasavvurini boyitadi:
Nega ul kun sochlaringni anbarafshon aylading?
Ro’zg’orim tiyra ko’zim kavkabiston aylading?
Qo’lga qo’ygachmu xinolar yo dilim qon aylading
Yuzni gullardan bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach”.

Yoki 4 – bandidagi

O’lturur mahramni sulton ,ganj pinhon aylagach-misrali baytga bog’langan uchlikda Erkin Vohidov g’azalning nozik ma’nolarini ,qochirimlarini chuqur anglab,”uzukka sa’natkorona so’z qo’ygan”ligini anglashimiz mumkin :

Men-ku sodiq mahram erdim,og’zi mahkam,ko’ngli pok,
Ishq sirin etmasdim oshkor bo’lgunimcha toki xok.
Shafqat istab nola qildim,ont ichib yoqamni chok,
Jonda qo’yg’och naqdi ishqin qildi ko’nglimni halok.
O’lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach .

Muxammasning so’nggi bandidagi “Ishq zaxmi bitmagan”i(Erkin Vohidov) hamda “Bas,nedinkim,qon kelur og’zingdin afg’on aylagach”(Navoiy)badiiy ifodasidagi mantiqiy izchilikka asoslangan fikriy tugallik tasodifiy emas , balki ustoz maqsadini to’g’ri anglagan shogird fasohadidan darak beradi.

Erkin Vohidovning marjon donasiday terilgan ijod na’munalariga ko’z tashlaydigan bo’lsak.Navoiyning “Junun vodiysida “ nomli g’azaliga yozgan sharhi shogirdlik,izdoshlik an’anasini yuqori cho’qqigacha olib kelganiga yana bir bora amin bo’lamiz.

“Ulug’ Navoiyning har biri jahon ma’no, bir olam his tuyg’u ifoda qilguvchi baytlarini takror – takror o’qib har safar ko’nglimiz surur va hayajon bilan to’ladi,har safar bu olmas satrlarning yangi qirralarini kashf qilamiz,yangi-yangi ma’no tovlanishlarini ko’rib hayratlanamiz.Navoiy baytlari bizning hayotimizga bolalikdan,dastlabki o’qish kitoblari bilan kirib keladi. Biz ilk bor buyuk shoirni donishmand muallim sifatida taniymiz,”olim bo’lsang,olam seniki”deb aytgan ustoz sifatida o’rganamiz.So’ng o’smirlik va yigitlik faslida bizga Navoiy muhabbat,vafo darsini beradi.

Yoniq ishqiy baytlarni yon daftarimizga ko’chirib yozamiz , ilk sevgi maktublariga qo’shib bitamiz.Vaqt o’tishi bilan buyuk Alisher Navoiy ko’z



oldimizda faylasuf sifatida namoyon bo'ladi, bizga hayot darsini o'rgatadi, uning sevinch va anduhlari, zavqu jafolarini so'zlab dunyo haqidagi tasavvur doiramizni kengaytiradi.

Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zg'orimni.

Mana shu matla' bilan boshlanuvchi g'azal o'zbekning xonadonida dambadam mehmon bo'ladi. Uni mashhur hofizlarimiz maqom yo'llarida juda ta'sirli ijro etganlar.

Bu g'azal dunyoning g'am anduhidan zardob bo'lgan shoir qalbining afg'onidir. Inson yuragi haddan ziyod sevinchni ham, g'amni ham qabul qilaolmaslik xususiyatiga ega. Tuyg'ularning ofatli seli kishini telba qiladi. Shoir o'z jonini junun ya'ni telbalik vodiysiga moyil ko'radi, buzulgan hayot - ro'zg'ori uni aqldan ozdirgani, endi telbalikni bo'yinga olib dashtu sahrolar kezishdan o'zga iloji qolmaganini va telbalik-buzish, vayron qilish ekan, demak buzilgan hayotini bir yo'la vayron qilmoq tilagini faryod bilan ifsho qiladi:

Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zg'orimni.

Shoir dunyodan shunchalar ko'ngli qolgan, sovuganki, oqibatsiz odamlardan shunchalar mehri qaytganki, bu hayotdan hech bir nishonsiz yo'q bo'lib ketishini tilaydi. Inson jismi-ku xoki g'ubor bo'lmoqqa ham mahkum, lekin shoir istagi-

Falak bedodidan garchi mani xokiy g'ubor o'ldum,
Tilarmen, topmag'aylar to'tiyolikka g'uborimni.

Ya'ni zolim odamlar meni tirikligimda xo'rladilar, qadrimga yetmadilar. Vaqt kelarki, mening odamlarga ko'rguzgan mehru sadoqatim, fidoyiligim ayon bo'lar. Kishilar meni qadrimga yetarlar, mozorim xokini ko'zlariga to'tiyo qilarlar. Lekin tirikligimda bedodlik qilganlar men dunyodan o'tgach o'kinmoqlar, benaf ko'zlariga to'tiyo qilmoq uchun g'uborimni topmagaylar. O'shanda, ey ahli g'aflat, Navoiy qayga azm etti deb so'ramang, men tirikligimdayoq ixtiyorim jilovini qazoning qo'liga berib qo'yganmen.

G'azalning so'nggi misralariga ya'ni maqtasiga ko'z tashlaydigan bo'lsak:

Jahon tarkini qilmay chunki topmoq mumkin emastur,
Navoiy, qil meni ozod o'rtaab yo'g'u borimni.

Navoiyning bu mashhur g'azali falak bedodidan, bemehr odamlar jabridan shoirning chekkan nolasi bo'lib necha asrlar osha devondan devonga ko'chirilib, og'izdan og'izga o'tib, ham kitob varaqlarida, ham qo'shiqlar qanotida



bizgacha yetib keldi. Bugun biz ulug' bobomizning olis nabiralari beqiyos iste'dod qalamidan to'kilgan mana shunday satrlarni o'qib, eshitib ongimiz va yuragimiz bilan bahramandlik topamiz, uzoq-uzoq zamonlarning sadosini tinglaganday bo'lamiz:

Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni...

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Shoir eslaydi :”Bir vaqtlar ustoz shoir Mirtemir aytgan so'zlar yodimdan qolgan.”Men Navoiyning sur'atiga qarashga uyalaman. Negaki, u buyuk daho asarlarining mag'zini chaqib ulgurgan emasman”.Bu albatta kamtarinlik bilan aytilgan so'z edi. Lekin bu so'zlardagi haqiqat shu ediki, jamiyatimiz o'zi Navoiyni anglash va his etish darajasiga yetmagandi,bugun ham yetgan emas.Faqat yetish yo'lida qadamlar tashlanmoqda, desam to'g'ri bo'lar.Biz bugun ham hazrat Navoiy ruhi oldida tavba- tazarrular qilishimiz kerak. O'zimizni uni avlodlari,merosxo'rlari sanab,ko'ksimizga urib,ulug' bobomiz bilan faxrlandik,olamga jar soldik, lekin buyuk Navoiy dahosini sa'nati va falsafasini teranligi bilan anglab yetmadik (Vohidov.E.Iztirob.T,:O'zbekiston,1992,254-255-betlar.)

Shoir bir paytlar to'lg'onib-qon yig'lab bitgan:

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshni kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa?
Qora sochingni malla bo'lgani shudir...
O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Aldangani,alla bo'lgani shudir.
Yulg'uch aziz bo'lib,bilgich xor bo'lsa,
Paytavangni salla bo'lgani shudir.

(Vohidov E. Kuy avjida uzilmasin tor. She'rlar va doston.-T,:G'afur G'ulom Nomidagi Nashriyot – matbaa birlashmasi,1991,184-bet)

Bir maktab bolasini turg'uzib, Navoiyning qanday so'zlarini bilasiz,deb so'rasangiz, hamma o'quvchilar bir ovozdan :”Odamiy ersang demagil odami,Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami” deb javob beradi. Negaki, maktab devorlarida, dam olish uylarining bezaklarida, kinolar, teatrlar, klublar- hamma yerda Navoiyning shu so'zlari yozilgan.Go'yo Navoiy boshqa so'z aytmaganday...

Navoiyning bizlarga olib bergan unvonlari evaziga biz uning ijodini boshdan-oyoq ters tahlil qildik... dostonlarini ham qatag'onlik qaychisida omon qo'ymadik” (Vohidov.E.Iztirob,- T,:O'zbekiston,1992,255-bet)

Hali oldinda uzoq,ravon yo'llar kutib turibdi.Biz Mustaqillikka erishgan O'zbekistonimiz uchun,ona xalqimiz uchun bundan buyon ham astoydil xizmat



qilishga(demakki,endi bu ulug'larimiz o'z o'tlug' ijodlari bilan-F.Shodiyev izohi) shaymiz" (Hikmatlar shodasi ,-T,:O'zbekiston ,2013,5-bet)

Demakki,biz hali ham yo'lning eng boshidamiz.Biz ajdodlarimizni meroslarini anglab yetolmaguncha,ularning avlodimiz deyishga haqqimiz yo'q.Erkin Vohidov umid qilganidek:

El komil bo'lmasa yurt emas ulug',
Beqadr mahalla bo'lgani shudir.
Qalb to'la nur xalqning rizqi ham to'lug,
Ombor to'la g'alla bo'lgani shudir
O'zbek o'zligini anglasa bekam,
Uning "Barakalla" bo'lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan
Ovozi barilla bo'lgani shudir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.Namangan viloyat faollari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqidan.kun.uz saytidan olindi.
2. Vohidov E.Yoshlik devoni . Toshkent G'afur G'ulom. 1969. Keyingi misollar ham shu kitobdan olindi.
3. Jabborov Murboy.Millatning yangi kuni.Fidokor,1998,18-mart
4. Vohidov.E.Iztirob,-T,: O'zbekiston,1992 , 254-255-betlar.
5. Vohidov.E.Kuy avjida uzilmasin tor.She'rlar va doston,-T,:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi,1991,184-bet
6. Vohidov.E.Iztirob, - T,:O'zbekiston,1992,255-bet
7. "Hikmatlar shodasi",- T,:O'zbekiston,2013,5-bet
8. Oyina.uz saytidan.
9. www.ziyouz.com kutubxonasi.